

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

RO'ZIYEV FURQAT RO'ZIYEVICH

**BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASHDA IXTISOSLIK FANLARDAN O'ZLASHTIRISH
NATIJALARINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Ro‘ziyev Furqat Ro‘ziyevich

Bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan
o‘zlashtirish natijalarini baholash metodikasini takomillashtirish3

Рузиев Фуркат Рузиевич

Совершенствование методики оценки результатов освоения специальных
дисциплин при подготовке будущих инженеров к профессиональной
деятельности.....25

Roziyev Furkat Roziyevich

Improvement of the methodology of evaluation of the results of mastering of
specialized subjects in the preparation of future engineers for professional
activities49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

Published Works.....53

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

RO'ZIYEV FURQAT RO'ZIYEVICH

**BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASHDA IXTISOSLIK FANLARDAN O'ZLASHTIRISH
NATIJALARINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8444-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Kasbiy ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ipitvet.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashurova Sanobar Yuldashevna
pedagogika fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Olimov Qahramon Tanzilovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Ergashev Bobirjon Boxodirovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "28" 11 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (+998 71) 227 19 24. E-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (131 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (+998 71) 227 19 24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "12" 11 kuni tarqatildi.
(2025 yil 12.11 dagi 21-raqamli reyestr bayonnomasi)


Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor
I.I. Shodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., dotsent
I.I. Shodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida zamonaviy ta'lim muhiti ulkan makrotizimdan iborat bo'lib, o'zining falsafiy va madaniy an'analari, shuningdek miqdoriy va sifatiy holatlari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi virtual va real pedagogik tizimlar integratsiyasini aks ettiradi. Xususan, Yevropa ittifoqi va YUNESKO tashkilotlari tomonidan qabul qilingan Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration, Paris) hamda kasbiy malakalar to'g'risidagi Lissabon Konvensiyasi (Convention on the Recognition of Qualification concerning Higher Education in the European Region) oliy ta'limda integrasion jarayonlarning jadal rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Xalqaro tajribalarga ko'ra tabiiy-ilmiy, ijtimoiy va texnik fanlar, fan va ishlab chiqarish tuzilmalarining uzviy aloqadorligini chuqurlashtirish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, kasbiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti tendensiyasini yanada rivojlantirishda o'quv-tarbiya ishlari elementlarining uyg'unligi va o'zaro birligini ta'minlash asosida ta'lim funksiyasini yanada kengaytirish (ta'limning integrativ funksiyalari), innovasion ta'lim usullari (integrativ ta'lim shakllari va metodlari), ta'limni modernizatsiyalash (integrativ texnologiyalar), ta'lim natijasi (shaxsiy va kasbiy sifatlar yaxlitligi) kabi integrasion jarayonlar muhim o'rin tutadi. Bu esa pedagogik va texnik bilimlar integratsiya asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasini takomillashtirish va ta'lim natijasini diagnostik usullar bilan sinab ko'rish va aniqlangan muammolar bo'yicha tegishli metodik tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda samarali Oliy ta'lim tizimini joriy etishga qaratilgan tub islohotlar natijasida bo'lajak muhandislarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish¹ ustuvor vazifasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o'zlashtirish natijalarini ob'yektiv baholash metodikalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassisda bilimlarni o'zlashtirish va kasbiy faoliyat modelini loyihalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiradigan yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati hozirgi globallashtirish sharoitida kun tartibiga keskin qilib qo'yilmoqda. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2019. – B.56

fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasini takomillashtirish, tadqiq qilish o'z yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son, 2019-yil 8-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishga R.X.Djurayev, Sh.E.Qurbonov, A.R.Xodjabayev, N.A.Muslimov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, Sh.S.Sharipov, U.I.Inoyatov, X.F.Rashidov, S.Yu.Ashurova, M.B.Urazova, J.A.Hamidov, N.F.Abdunazarova, O.A.Abdqudusov, G.M.Anorqulova, R.Q.Choriyev, B.B.Ergashev, F.X.Gapparov, P.Z.Ishanov, K.J.Mirsaidov, N.N.Musayeva, B.S.Nuridinov, O.X.To'raqulov, D.M.Fayzullayeva, A.A.Shoyusupova va boshqalar o'z hissalarini qo'shganlar.

Pedagogik nazariyada mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini ko'rib chiqish uchun ma'lum omillar yuzaga keldi. Ilmiy tadqiqotlar tahlili mutaxassisning o'zini o'zi takomillashtirishga tayyorlash masalasi har tomonlama ishlab chiqilganligini ko'rsatadi. Shu jumladan, pedagogik nazariyada mutaxassisning o'zini o'zi takomillashtirishga kasbiy tayyorgarligini o'rganish uchun ma'lum asoslar shakllantirilgan. Muammoning falsafiy asoslari mamlakatimiz faylasuf-olimlari M.Xayrullayev, E.Yusupov, M.Imomnazarov, B.Tuqliyev, J.Tulenov, O.Otamurodov, S.Shermuhammedov, A.Jalolov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ma'lum darajada o'z ifodasini topgan.

Muammoning psixologik jihatlari E.G'oziyev, G'.Shodmonov, V.Karimova, A.V.Petrovskiy, V.A.Kruteskiy, N.V.Kuzmina, Ye.A.Klimov, R.Sunnatova, Sh.Barotov va boshqalarning ishlarida o'rganilgan.

Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashning umumpedagogik va didaktik jihatlari O.A.Abdulina, V.A.Selastenin, O'.Q.Tolipov, F.R.Yuzlikayev, A.I.Vorobyov, N.A.Muslimov, E.T.Choriyev, M.M.Axmetjanov, Sh.Sharipov, M.Hakimova, O.A.Abduquddusovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, davr, taraqqiyot uzluksiz ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zaruriyatini tug'dirdi. Bu yo'nalishdagi masalalar V.P.Bespalko, I.Ya.Lerner, B.T. Lixachyov, M.V.Klarin, Ye.S. Polat, N.Sayidaxmedov, O'.Tolipov, M.Ochilov, N.Azizxo'jayeva, B.L.Farberman, M.Usmonboyeva va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida amalga oshirilgan AIF 2/20 – "Shaxsga yo'naltirilgan innovasion texnologiyalar asosida texnik yo'nalishlar bo'yicha malakali muhandis kadrlar tayyorlash va o'qituvchilar malakasini oshirish sifatini yaxshilash" mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'zlashtirish natijalarini baholashning pedagogik shart-sharoitlarini kvalimetrik yondashuvni qo'llash asosida takomillashtirish;

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari mazmunini kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan baholash topshiriqlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholashning metodik modelini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirish natijalarini baholash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash shakllari, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzuga oid psixologik-pedagogik, o'quv-metodik manbalar tahlili; DTS, malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini o'rganish va tahlil qilish; modellashtirish (loyihalash); pedagogik-ijtimoiy (kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test); pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalarga matematik va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'zlashtirish natijalarini baholashning pedagogik shart-sharoitlari ta'limni standartlashtirishning o'ziga xos jihatlari, kasbiy kompetensiyalarning o'ziga xos

xususiyatlarini va baholash jarayonining ko'p qirraliligini e'tiborga olgan holda kvalimetrik yondashuvni qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari mazmuni talabalarning qiziqish va materialni mustaqil topa olish qobiliyatini hosil qilish, o'z-o'zini baholash ketma-ketligini mustaqil tanlash va amalga oshirish ko'nikmasini hosil qilish va kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan baholash topshiriqlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasi o'zlashtirish natijalarini baholash materiallarini tanlash, kop funksiyali topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hamda "Operativ xotira", "Raqamli xotira — ko'rish metodikasi", "Raqamli xotira — eshitish", "Tasvirli xotira" va Myunsterberg metodikasini qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholashning metodik modeli talabalarning ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini dastlabki, asosiy, va yakuniy baholash bosqichlari hamda o'z bilim, ko'nikmalarini va olingan qarorni baholash qobiliyatini rivojlantirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari 60720900-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi yo'nalishi professor - o'qituvchilari uchun "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" elektron darsligi yaratilgan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan;

oliy ta'lim muassasalari 60720900-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi yo'nalishi professor - o'qituvchilari uchun "O'quv jarayoniga ta'limning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan;

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va baholashga doir metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik darajasini baholash metodikasi ishlab chiqilgan va tajriba-sinov ishlarida uning samarali ekanligi olingan natijalar bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan baholash metodlari, model, o'quv qo'llanma, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonlarini tizimli-faoliyatga oid yondashuv asosida tashkil etish, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirishda, kasbiy ta'limini rivojlantirishda foydalanilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga,

olingan natijalar bo'lajak mutaxassis kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuniy va texnologik asoslarini nazariy jihatdan boyitishda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida, ixtisoslik fanlarni o'qitish jarayonida va uni takomillashtirishda, oliy o'quv yurtlari, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida, ta'lim-tarbiya muammosi bilan shug'ullanuvchi pedagog, ruhshunos olimlar hamda soha bo'yicha bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura ixtisosliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashga doir oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlariga kiritilishi; oliy ta'lim hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari, maxsus kurslarni ishlab chiqish va o'tkazishda qo'llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholashning pedagogik shart-sharoitlariga oid taklif va tavsiyalari "O'quv jarayoniga ta'limning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i). Mazkur o'quv qo'llanma ta'lim muassasalarida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashni ta'minlashga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasi hamda "Operativ xotira", "Raqamli xotira — ko'rish metodikasi", "Raqamli xotira — eshitish", "Tasvirli xotira" va Myunsterberg metodikasi "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" elektron didaktik ta'minoti mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-oktyabrda № 4/17-3006-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda mutaxassislik fanlarini o'qitish sifatini oshirishga xizmat qilgan;

oliy ta'limda talabalarning ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasiga oid tavsiyalari "60720900-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitish natijalarini baholash va monitoring qilish jarayonida qo'llanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-oktyabrda № 4/17-3006-sonli ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini baholashning metodik tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan bitta o'quv qo'llanma, bitta elektron darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa,

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 127 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr ettirilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'zlashtirish natijalarini baholashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholash muammosi, bo'lajak sanoat muhandislarini tayyorlashda ixtisoslik fanlarning o'ri va bo'lajak muhandislarni tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholashning ilg'or tajribalari bayon etilgan.

Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarning rivojlanishini baholash turli pedagogik, texnik va kompetentsiyaga asoslangan yondashuvlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali jarayondir. Bugungi kunda tez rivojlanayotgan texnologiyalar va globallashtirish sharoitida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholash muammosi dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy muhandislar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga, muammolarni hal qilish qobiliyatiga, jamoaviy ishlashga va doimiy o'rganishga ham ega bo'lishlari kerak.

Ixtisoslik fanlar bo'lajak sanoat muhandislarini tayyorlashda, ularga o'z sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu fanlar fundamental va ilg'or tushunchalarni o'zida mujassam etgan holda o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar va metodikalarni yaxshi bilishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, ixtisoslik fanlar bo'lajak sanoat muhandislarining har tomonlama rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, ularga kasbiy martabalarida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni beradi.

Ixtisoslik fanlar bo'lajak sanoat muhandislarini tayyorlashda, ularga o'z sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu fanlar fundamental va ilg'or tushunchalarni o'zida mujassam etgan holda o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar va metodikalarni yaxshi bilishini ta'minlaydi.

Ixtisoslik bilimlar muhandislik va texnologiya bo'yicha maxsus bilimlar murakkab muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan chuqur nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Ushbu bilimlar ko‘pincha kodlashtiriladi va tizimlashtiriladi, bu mutaxassislariga ularni turli kontekstlarda samarali qo‘llash imkonini beradi. Masalan, neft-gazkimyo sanoati muhandisligi va mashinasozlik sohasida ixtisoslik bilimlar zamonaviy kimyo muhandisligi texnologiyalari, texnologik jarayonlarni loyihalash, texnologik hujjatlar va kompyuter yordamida loyihalash usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi, ular professional kompetentsiya va amaliyotda qo‘llanilishi uchun juda muhimdir.

Neft-gazkimyo sanoati muhandislik ta'limi sohasida kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish sanoat ehtiyojlarini qondira oladigan malakali bitiruvchilarni etishtirish uchun juda muhimdir. Nazariy mexanika, materiallar va mashina qismlarining mustahkamligini o‘z ichiga olgan muhandislik mexanikasi kabi ixtisoslik fanlarning integratsiyasi kelajakdagi muhandislar uchun asosiy jihat bo‘lgan mashina qismlarining mustahkamligi va deformatsiyasini tushunish uchun zarurdir. Bunday integratsiya talabalarning nafaqat texnik bilimlarni, balki ularning kasbiy kompetentsiyasi uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, muhandislik, ma'lumotlarni tahlil qilish, zamonaviy texnik va dasturiy ta'minotdan foydalanish kabi kasbiy ko‘nikmalarni o‘quv rejasiga kiritish bitiruvchilarning texnik qobiliyatlarini buzmasdan ishga joylashishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu ko‘nikmalarning kiritilishi o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilarga professional ko‘nikmalarni rivojlantirishni samarali baholash va integratsiyalashda yordam beradigan asoslar va metodologiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Ixtisoslik fanlar va amaliy ko‘nikmalarning integratsiyasi kelajakdagi muhandislar uchun zarur bo‘lgan har tomonlama ta'limni ta'minlaydi.

Ixtisoslik fanlarning integratsiyasi:

1. Muhandislik mexanikasi: nazariy mexanikani, materiallarning mustahkamligini va mashina qismlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu fanlar mashina qismlarining mustahkamligi va deformatsiyasini tushunish uchun zarurdir, bu kelajakdagi muhandislar uchun asosiy jihatdir.

2. Dizayn va ma'lumotlarni tahlil qilish: dizayn, ma'lumotlarni tahlil qilish va zamonaviy apparat va dasturiy ta'minotdan foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga olish bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishini sezilarli darajada oshiradi.

3. Asoslar va metodologiyalar: O‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar professional ko‘nikmalarni samarali baholash va birlashtirish uchun turli asos va metodologiyalardan foydalanadilar. Kompetentlikni rivojlantirish modeli o‘qituvchilar, sanoat va o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar o‘rtasida kelishilgan harakatlar zarurligini ta'kidlaydi.

Bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o‘zlashtirish natijalarini baholash innovatsion ta'lim strategiyalari, amaliy qo‘llanmalar va malakaga asoslangan baholashni o‘zida mujassam etgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Baholashning ilg‘or usullari tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish, innovatsion o‘quv va ilmiy laboratoriyalarni yaratish, loyihalarni boshqarish usullarini integratsiyalashuvi, kompetensiyaga asoslangan va fanlararo yondashuvlar malaka oshirish sifatini

o'shishda asosiy rol o'ynaydi. Bunday yondashuvlar neft-kimyosanoati kabi murakkab va yuqori texnologiyali tarmoqlar uchun ayniqsa muhimdir.

Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholash nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va innovatsion texnikalarni o'zida mujassamlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Innovatsion o'quv va ilmiy laboratoriyalardan foydalanish kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, amaliy tajriba bilan ta'minlash va muhandislik tushunchalarini chuqurroq tushunishga ko'maklashishning asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan.

Neft-kimyosanoatida yuqori malakali mutaxassislarni samarali tayyorlashda nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kimyo va mexanika bo'yicha nazariy bilimlar neft va gazni qayta ishlashning murakkab jarayonlarini tushunish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalarni beradi, bu ajratish, adsorbsiya va massa-energiya o'tishlarining murakkab tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Boshqa tomondan, ushbu jarayonlarda qo'llaniladigan murakkab uskunalar va texnologiyalarni boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun amaliy ko'nikmalar talab etiladi. Ushbu ikki tomonlama talab nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlik yaxshi hujjatlashtirilgan kengroq ta'lim muhitini aks ettiradi. Amaliy bilimlarning ahamiyati amaliyotni amalga oshirish va falsafiy mulohaza yuritishni ta'kidlaydigan amaliy bilimlar fanida ham ta'kidlanadi. Bundan tashqari, kasbiy ta'limda amaliy mashg'ulotlar zarurligi ta'kidlanadi, bu erda nazariy bilimlarni kontekstda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun qo'llash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Ta'limga bunday yaxlit yondashuv mutaxassislarning nafaqat bilimli bo'lishini, balki o'z bilimlarini real vaziyatlarda ham qo'llay olishini ta'minlaydi va shu orqali neft-kimyosanoatida umumiy malaka va samaradorlikni oshiradi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasi”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholashning pedagogik shart-sharoitlari va metodik modeli, bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholash materiallarini tanlash va professional ta'limda talabalarning ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash metodikasi yoritib berilgan.

Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholashning metodik modelini amalga oshirish samaraliroq bo'ladigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlab, pedagogik tizimning ishlashi uchun qulay muhit yaratadigan tashqi omillar sifatida modelni to'ldirishi va uning samaradorligini oshirishi kerak.

Zamonaviy tadqiqotlarda pedagogik shart-sharoitlarni kengroq to'xtalib o'tilgan. Biroq, ishlab chiqilgan modelning o'ziga xosligi va uni amalga oshirish natijasining murakkabligi bizni o'z shartlarimiz to'plamini aniqlash zarurligini anglashimizga olib keldi. Ularni izlash orqali biz, birinchi navbatda, bir tomondan,

bo'lajak muhandisdarni ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash jarayonining komponentlari bo'lgan omillarni, ikkinchi tomondan, bu jarayonni va uning natijasini kuchaytiradigan holatlarni aniqladik. Natijada biz omillarning ikki guruhini aniqlash zaruriyatiga keldik: 1) modelning har bir komponenti faoliyati samaradorligini oshirish; 2) bo'lajak muhandisning shaxsiyatiga ta'sir qilish, uning ish faoliyatini bizning modelimiz tomonidan taqdim etilgan asosiy jihatlarda yaxshilash uchun, xususan: boshqaruv funksiyalarini bajarishga tayyorlik, loyiha faoliyati va klasterning o'zaro ta'siri.

Bundan tashqari, oldimizda zamonaviy pedagogik ta'limning me'yoriy hujjatlariga zid bo'lmagan va kerakli natijalarga erishishni ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash vazifasi qo'yildi. Va nihoyat, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash jarayonida biz kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga, uning mazmuniga va bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratdik. Natijada biz ikkita shart guruhini aniqladik:

1. Mazmunli-muvofiqlashtiruvchi shartlar: a) talabalarning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda o'z-ozini baholashga jalb qilish (resurs-tarmoq komponenti); b) jamoatchilik va professional muhit vakillari tomonidan loyiha yechimlarini ekspertizadan o'tkazish (loyihalash va boshqaruv komponenti); v) vaqtni boshqarish tamoyillari bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil etish (tashkiliy va predmetli komponenti).

2. Amalga oshirilayotgan ta'limning asosiy jihatlari muvofiq talaba shaxsiga ta'sir etuvchi sub'ektiv-mazmunli sharoitlari: a) kommunikativ tashabbus (boshqaruv faoliyati)ni rivojlantirish; b) bo'lajak muhandisning ijodiy salohiyatini takomillashtirish (loyiha faoliyati).

Bizning holatda, talabaning mavjud tajribasiga virtual aloqaning o'ziga xos xususiyatlari, baholash vositalari, ular bilan ishlash qobiliyati, internet makonidagi kommunikativ xatti-harakatlar qoidalarini tushunish kiradi, bu bo'lajak muhandislar tomonidan baholash metodlarini tanlash va ulardan foydalanishni belgilaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsiy tajribani hisobga olgan holda talabalarni o'z-o'zini baholashga jalb qilish shartlarini amalga oshirish ma'lum xususiyatlarga ega.

Birinchi, u to'g'ridan-to'g'ri loyiha faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modelning ishlash qismida, ya'ni biz ishlab chiqqan o'quv dasturining ikkinchi va uchinchi bo'limlarini ishlab chiqishda taqdim etiladi. Talaba qanday kasbiy vazifasini bajarishi kerakligini, qanday va kim bilan ishlashini bilib, baholash metodlarini tanlashga o'tadi. Shu bilan birga, professor-o'qituvchi mavjud baholash metodlariga murojaat qiladigan va ularning ba'zilar bilan tanishadigan dasturning nazariy qismi talabaning shaxsiy tajribasini sezilarli darajada to'ldiradi, talabalar tomonidan foydalanish uchun taklif qilinadigan baholash metodlarini xilma-xilligini ta'minlaydi va bu bilan bog'liq qarama-qarshiliklarni yo'q qiladi.

Ikkinchidan, ushbu shartni amalga oshirish bir qator ketma-ket bosqichlarni ta'minlaydi:

1. Talaba tomonidan ixtisoslik fanlarni o'zlashtirishda baholash metodlarini mustaqil tanlash va asoslash. Kasbiy faoliyati uchun potentsial mos keladigan o'z-

o'zini baholash haqidagi tasavvurining asoslanishi ochiq bo'lishi kerak, shunda keyingi bosqichda ularning ro'yxatini guruhning qolgan a'zolari bilan muvofiqlashtirish mumkin bo'ladi.

2. O'zlashtirish natijalarini baholash ro'yxatini muvofiqlashtirish va tasdiqlash. Kasbiy faoliyatining jamoaviy tabiati guruhning barcha a'zolari tomonidan baholash metodlaridan foydalanishni talab qiladi. Shu bilan birga, uning alohida a'zolarining etarli malakasi, qoida tariqasida, o'zaro yordam va o'zaro o'rganish orqali oshiriladi, bu ko'pincha professor-o'qituvchining yordamidan ko'ra samaraliroq bo'lib chiqadi. Guruhdagi talabalar bir-biriga nisbatan ochiqroq holatda, uzluksiz fikr-mulohazalar kamchiliklarni tezroq tuzatishga va ularni bartaraf etishga imkon beradi va talabalarning "bir tilda" muloqoti tezroq kerakli natijaga olib keladi.

3. Kasbiy faoliyatga tayyorlashda baholash metodlaridan foydalanish. Kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabaning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda tanlangan baholash metodlari, agar kerak bo'lsa, to'ldiriladi.

Ushbu shartning ta'minlanishi professor-o'qituvchi tomonidan tanlangan baholash metodlari doimiy moderasiyasini ta'minlaydi, bu esa potensial xavfli ma'lumotlarni yo'q qilish, samaraliroqlarini joriy etish va ular bilan ishlash, ulardan samarali foydalanishda yordam berish imkonini beradi.

Pedagogik shart-sharoitlar biz ishlab chiqqan modelga haqiqatan ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun uni amalga oshirish boshlanishi bilan bir vaqtda ta'minlanishi kerak. Bu bizga baholash samaradorligini oshirish, ushbu o'zaro ta'sirni tashkil etishni takomillashtirish, vaqt xarajatlarini optimallashtirish orqali modelimiz samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarini tahlil qilish natijasida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholashning uch bosqichini aniqladik: kirish, oraliq va yakuniy (1-jadval).

1-jadval

Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari mazmuni

Bosqichlar	Vazifalar
Dastlabki	1) kompetentlik yondashuvi nuqtai nazaridan nazariy pozitsiyani tuzish. 2) ta'lim muammolarini hal qilish bo'yicha ko'rsatmalarni tizimlashtirish.
Asosiy	1) talabalarning qiziqish va materialni mustaqil topa olish qobiliyatini hosil qilish; 2) o'z-o'zini baholash ketma-ketligini mustaqil tanlash va amalga oshirish ko'nikmasini hosil qilish.
Yakuniy	1) o'z bilim va ko'nikmalarini baholash qobiliyatini rivojlantirish; 2) olingan qarorni baholash qobiliyatini rivojlantirish

1-rasmda keltirilgan bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholashning metodik modeli quyidagi bloklardan iborat: maqsadli; metodologik; tashkiliy; texnologik; diagnostik.

Model quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslandi: *ilmiylik tamoyili; tizimlilik tamoyili; ratsional va hissiy birlik tamoyili; mavzuga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning birligi tamoyili; nazariy va empirik bilimlarning birligi tamoyili; mavjudlik tamoyili; vizuallashtirish tamoyili.*


Modelning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlash uchun biz tadqiqotimiz doirasida tavsiya etilgan modelning komponentlarini tahlil qilish va tuzish, shuningdek, bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholashning eng maqbul asosi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradigan *tizimli, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan, kvalimetrik va kompetentli yondashuvlarini* tanladik.

Ishlab chiqilgan metodik modelni qo'llash dastlabki, asosiy va yakuniy bosqichlarda amalga oshirildi, ularning har biri asosiy kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning muayyan komponentini tashkil etadi. Metodik model professional ta'lim jarayonining har bir bosqichida shakllantiriladigan bo'lajak muhandisning kasbiy kompetensiyalarining komponentlarini, muhandislik talabalarini o'qitishda ilmiy-uslubiy ishlar shakllari va vositalari; pedagogik jarayonning har bir bosqichidan kutilayotgan natijalarini aks ettiradi. Modeldan foydalanishdan asosiy maqsad ixtisoslik fanlaridan talabalarning o'zlashtirish natijalarini baholashni amalga oshirishdan iborat.

Maqsadli blokda tadqiqotning har bir bosqichiga qo'yilgan oraliq maqsadlar, "o'qituvchi" blokiga esa-o'qituvchi tomonidan bosqichma-bosqich hal etiladigan vazifalar kiradi. Demak, *dastlabki bosqichda* oraliq maqsad - talabalarning ixtisoslik fanlarga doir nazariy materiallar majmui, o'quv vazifalari shartlari va ularni hal etish yo'llari sifatida kengaytirish. Natijada o'qituvchining oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi: ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholashni kompetentlik yondashuvi nuqtai nazaridan tuzish; ta'lim muammolarini hal qilish vositalarini tizimlashtirish; ta'lim muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan ixtisoslik fanlari bo'yicha amaliy bilimlarni umumlashtirish; o'quv vazifalarini hal qilishda "muvaffaqiyat holati" ni yaratishga ko'maklashish.

Metodologik bloki. *Asosiy bosqichda* oraliq maqsad talabalarning o'quv-kasbiy vazifalarni hal etishda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu maqsad o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: muammoli (ishlab chiqarish) vaziyatni tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish; talabalarning o'z ustida qo'shimcha zarur material topa olish qiziqishi va qobiliyatini shakllantirish; ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholash ketma-ketligini mustaqil tanlash ko'nikmasini hosil qilish; muammoli vaziyatni tasavvur qilish, sonli tavsif olish ko'nikmasini hosil qilish.

Yakuniy bosqichda oraliq maqsad bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda mustaqil qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Bu maqsadlarga muvofiq o'qituvchiga vazifalar yuklatildi: o'z bilim va ko'nikmalarini baholash ko'nikmasini shakllantirish; umumlashtirish va tizimlashtirish asosida o'quv (ishlab



1-rasm. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlardan o'zlashtirish natijalarini baholashning metodik modeli

chiqarish, malakaviy amaliyot) muammolarini yechish algoritmlarini yaratish ko'nikmasini shakllantirish; olingan yechimni baholash ko'nikmasini shakllantirish; o'rganilgan materialni strukturalash jarayoniga talabalarni faol jalb etish.

Tashkiliy bloki har bir bosqichda shakllantiriladigan bo'lajak muhandisning kasbiy kompetensiyalarini o'rganadi.

Dastlabki bosqichda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik komponentlarini shakllantirish amalga oshiriladi: kasbiy muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash va muammoli sohaga oid materialni tizimlashtirish. Shu bilan birga, tashkilotchilik, tirishqoqlik, kuzatish, diqqat, mantiqiy qobiliyat, so'z qobiliyatlari, ishni rejalashtirish qobiliyati, tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanish qobiliyati, ma'lumotnomalar, ixtisoslashgan bilim, tizim tafakkuri, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va ilmiy bilimdonlik kabi qobiliyat va shaxsiy xususiyatlar ishlab chiqilgan. Kelajakda kasbiy faoliyat maxsus adabiyotlardan, ma'lumotnomalardan, texnik madaniyatning yuqori darajasidan, muhandislik muammosini ko'rish qobiliyati, gipotezani oldinga surish qobiliyati, texnik bilimdonlik, texnik fikrlash, texnik muammoni baholash qobiliyati, texnik vaziyatni haqiqiy baholash, texnik qurilmalarni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatiga aylanadi.

Asosiy bosqichda bu malakalarning faoliyat komponenti shakllanadi: ixtisoslashgan fanlaridan amaliy bilimlar mustahkamlanib, tenglamalar va yopiq tenglamalar sistemalarini yechish ko'nikmalari hosil qilinadi. Ushbu ko'nikmalar kelajakdagi muhandisning quyidagi fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi: tirishqoqlik, fidoyilik, qarorlarining to'g'ri sabablari, mustaqillik, tanqidiy fikrlash, muammoni baholash qobiliyati, amaliy va nazariy aql uyg'unligi, vazifalarni hal qilish uchun oqilona yondashuv, fikrlash tezligi, fazoviy tasavvurni rivojlantirish, qo'l epchilligi, fazoviy xotira, ko'zning rivojlanishi, o'quv tasvirlarini bajarish qobiliyati, statika va jarayonlarning dinamikasini aks ettiradi. Ushbu fazilatlar va maxsus fanlarni keyinchalik o'rganish tufayli talabalar quyidagi kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar: texnik siyosat olib borish, samarali texnik yechimlarni topish, zarur materiallar miqdorini hisoblash, texnik qobiliyatlarni shakllantirish, texnik muammoni hal qilish qobiliyati, dizayn tasavvuri, qo'l qobiliyatlari, diagrammalarni o'qish va tushunish qobiliyati, chizmalar, texnik qurilmalarning sensomotor nazorati ko'nikmalari, amaliy ko'nikmalar, ishlab chiqarish funksiyalarini bajarish qobiliyati, harakat ob'ektlari va tizimlari namunalarini yaratish qobiliyati.

Yakuniy bosqichda kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning refleksiv komponenti shakllanadi: topshiriqlarni tuzish va tasniflash va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati shakllanadi. Shunday qilib, energiya, aloqa qobiliyatlari, guruhlarda ishlash qobiliyati, qarorlar uchun mas'uliyat, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati, mustaqil vazifalarni belgilash qobiliyati, shart-sharoitlarning nostandart ko'rinishi, ijodiy yondashuv, aql va ziyraklik moslashuvchanligi va qobiliyati, standart o'quv vaziyatiga baho berish va ularning tasavvurlarini, kuzatishlarini farqlay olish ishlab chiqiladi. Kelgusi mehnat faoliyatida talabalarga standart modellardan yangicha

foydalana olish, nostandart vaziyatlarni tahlil qilish va baholash qobiliyati kabi kasbiy ahamiyatli shaxs xususiyatlari kerak bo‘ladi.

Texnologik-jarayon bloki. maqsadi tanlangan barcha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish darajasini izchil oshirishdir. Dastlabki bosqichda asosan pedagogik faoliyatning shunday shakllaridan ma’ruza, ko’rsatma, so‘rov, baholash va sifat muammolarini yechish elementlari sifatida foydalaniladi. Asosiy bosqichida talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida suhbat, so‘rov, mashqlar va mustaqil masalalar yechishdan foydalaniladi. Yakuniy bosqichda kasbiy kompetensiyalarni yuqori darajada shakllantirish uchun seminar, tanlov, mustaqil ish olib borish, ijodiy vazifalarni bajarish, asosiy, grafik vazifalarini hal qilish kabi shakl va usullardan foydalaniladi.

Tanlangan metod, shakl va usullar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning har bir bosqichida qo‘llaniladigan pedagogik vositalarni aniqladi. Dastlabki bosqichda darslik va o‘quv qo‘llanmalar, stendlar, jadvallar, tuzilmaviy-mantiqiy sxemalar, ma’lumotnomalar va ko‘p axborot vositalaridan foydalanildi. Asosiy bosqichda yuqorida sanab o‘tilgan vositalarga o‘z-o‘zini o‘rganish mashg‘ulotlari uchun topshiriq kartochkalari va blankalar qo‘shildi. Yakuniy bosqichda asosan axborot-uslubiy materiallar, shaxsiy kompyuter va ma’lumotnoma materiallaridan foydalanildi.

